

**POETIK OBRAZ VA RUHIYAT UYG‘UNLIGI: VATAN KONSEPTI  
ASOSIDA**

**Karimboyeva Charos Ikrom qizi,**  
*Qoraqalpoq davlat universiteti*  
*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18902612>

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada atoqli o‘zbek shoiri Sirojiddin Sayyid ijodida muallif ruhiyatini tasvirlashda Vatan obrazining o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritilgan. Ijodkor she‘rlarida vatan va inson o‘rtasidagi ajralmas ruhiy bog‘liqlik badiiy timsollar orqali ifodalangan.*

**Kalit so‘zlar.** *Obraz, lirik kechinma, ruhiyat, ijod, badiiyat, Vatan, lirik qahramon.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается уникальность образа Родины в описании душевного состояния автора в творчестве известного узбекского поэта Сироджиддина Сайида. В стихах творца неразрывная духовная связь между родиной и человеком выражается через художественные образы.*

**Ключевые слова:** *Образ, лирический опыт, душевное состояние, творчество, искусство, Родина, лирический герой.*

**Annotation.** *This article discusses the uniqueness of the image of the Motherland in describing the author's psyche in the work of the famous Uzbek poet Sirojiddin Sayyid. In the poems of the creator, the inseparable spiritual connection between the homeland and man is expressed through artistic images.*

**Key words.** *Image, lyrical experience, psyche, creativity, art, Motherland, lyrical hero.*

She‘r – insonga ruhiy ehtiyoj, qalbni tirik tutadigan ma‘naviy ozuqadir. U ruhni poklaydi, tinchlantiradi hamda go‘zallikni ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Bu kabi tuyg‘ularni ifodalashda muallif ruhiyatining roli ahamiyatlidir. Lirik qahramon psixologiyasini turli badiiy vositalar orqali ochadi. Jumladan, ichki monolog, peyzaj, hislarning tashqi ekspressiyasi, tush, gallitunatsiya kabi. Bu vositalar ichida poetik obraz asosiy omil sanaladi. Obraz inson ruhiyatining muayyan ko‘rinishi ham bo‘lishi mumkin, shu bilan birga, narsa-hodisa, predmet, tabiat hodisalaridan tashkil topishi ham mumkin. Asosiysi, u lirik qahramon ruhiyatini butun murakkabligi bilan yoritib, shoirning g‘oyaviy-badiiy niyatini o‘zida mujassam etadi. “Obraz muallif tuyg‘ularining ifodasi o‘laroq vujudga keladi yoxud obraz shoir chizgan suratdir. Obraz elementlarida muallif lirik kechinmalari, ruhiyati aks etadi. Shu jihatdan ham lirik kechinma tahlili jarayonida obraz muhim ahamiyatga ega”([Xudoyberganova G. 2022:75]). Istedodli shoir Sirojiddin Sayyid she‘riyatini kuzatganda uning yorqin, rangin obrazlarga, zamirida poyonsiz, sirli tuyg‘ularni joylay olgan falsafiy umumlashmalarga boy ekanligini ko‘ramiz. Ayniqsa, Vatanga bo‘lgan mehri va vatanparvarlik tuyg‘usi shoirning she‘rlarida, dostonlarida va maqolalarida o‘z aksini topgan. Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov shoir haqida, “Vatan va millatga

muhabbat tuyg'usi Sirojiddin Sayyid she'rlarining asl mohiyatini, mag'zini belgilaydi. Shoir "rizq-ro'zi halol, mangu xalq" farzandi ekanidan iftixor hissini tuyadi" ([Jobborov N. 2015:160]).

Shoir Vatanni anglashda, uning rangin tasvirini yaratishda tabiat oshuftasi, uning otashin kuychisi bo'lib, bu orqali inson qalbidagi kechinmalarni, iztiroblar-u quvonchlarni badiiylik mezonlariga singdira olgan ijodkorga aylanadi. U o'zini, butun borlig'ini tabiatdan ayro tasavvur qila olmaydi. Jonli va jonsiz tabiat shoir ijodida timsolli tushunchaga, obrazli birikmaga aylanadi. Ular jonlantiriladi, metaforik talqinlarni namoyon etadi. Tabiat ramzlaridan vatanni anglashda falsafiy mushohadalar yuritadi. Ayni bu holat shoir uchun tayyor metafora, tayyor obrazli jumla, qolaversa, mohiyatga eltuvchi ilhom bo'lib xizmat qiladi.

*Bu dasht-u dalalar,  
Bog'lar ham mendan,  
Bu tuproq – bug'doybo'y,  
Handalak bo'yim.  
Sening ko'ksingdagi  
Dog'lar ham mendan,  
Bu – sening uyingdir,  
Bu – mening uyim* ([Sayyid S. 2019:410])

Bu she'rda lirik qahramon o'zini yurt bilan bir butun holda tasvirlaydi. She'rda obrazlar asosan tabiat va Vatan bilan bog'liq ramziy timsollar orqali yaratilgan. Dasht-u dala timsoli orqali kenglik, cheksizlik, tabiatning ulug'vorligi ifodalanadi. Dasht – ozodlik, kenglik va ona yurt timsoli. Bu obraz Vatan ko'lamini ko'rsatadi. Bog' – baraka, hayot, go'zallik ramzi bo'lsa, tuproq Vatan ramzi sifatida berilgan. Bug'doybo'y so'zi esa rizq, to'kinlik, hayot manbaini anglatadi. Bu yerda tuproq oddiy yer emas, balki muqaddas Vatan tuprog'idir. Keyingi satrda shoir o'z bo'yini handalakka qiyoslab, o'zini shu yurtning mevasi, farzandi sifatida ko'rsatadi. "Sening ko'ksingdagi dog'lar ham mendan" misrasida esa *dog'* iztirob, tarixiy jarohat, og'riq timsoli hisoblanib, lirik qahramon Vatan dardini o'z dardi deb biladi. So'nggi misralardagi "Bu – sening uyingdir, Bu – mening uyim" jumlasini orqali Vatan uyga tenglashtiriladi. Uy – xavfsizlik, mehr, panoh timsolidir. Asar obraz jihatdan Vatan va insonning ajralmas birligini ko'rsatadi. Bu yerda Vatan tashqi makon emas, balki lirik qahramonning o'zidir. She'r sakkizlik shaklda yozilgan. Bu shaklda shoir fikrni yana-da batafsil ifoda etish, tadrijiy davom ettirish, yurt ta'rifini mukammal yoritish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Adib ijodida vatan, el, yurt tushunchalari makon obrazi vositasida yana ham konkretlashadi, katta salmoq kasb etadi. Makon kishining kindik qoni to'kilgan joy, ulg'aygan, dunyoni tanigan yeri, Vatanni anglashdan oldin his etiladigan Vatan. Tirik jon borki, o'ziga munosib makon izlaydi, unga mehr qo'yadi, ko'z qorachig'iday asraydi. Bu makonning har bir jonzoti, har bir giyohi muqaddas. Shoirning "Bahor" she'rida makon obrazi o'ziga xos tarzda aks etgan. Unda shoir tug'ilib o'sgan Hisor tog'laridagi Kunda Juvoz qishlog'ining bahor tarovati tasvirlanadi:

*Kunda Juvoz tog'larida uyg'onadi ayiqlar,  
Uyg'onadi kakliklar,  
Paydo bo'lar ohular.*

*Tabiatning unutilgan lug'at kitobi kabi  
Uyg'onadi*

*Kunda Juvoz tog'larida bobomning bog'i* ([Sayyid S. 2018:11]).

Ayiqlar, kakliklar, ohular bu makonning egalari. Ammo unda bog'lar ham bor. Bahorda bu bog'lar uyg'onadi va tog'larga ajib husn bag'ishlaydi. Bularning hammasi Vatan obrazi bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

"Bo'ri cho'ponning o'g'liga nasihati" she'rida adirlar-u tog'larni, suruvlarni Vatan deb tushunish, unga butun mehrini baxsh etish tuyg'usi ifodalanganligini kuzatamiz:

*Bu adirlar, bu tog'lar – Vatan!  
Bu suruv ham Vatandir senga,  
Uni asragin!* ([Sayyid S. 2018:44])

Bo'ri cho'ponning bu kabi so'zlari shunchaki nasihat emas, balki bu so'zlar zamirida chuqur haqiqat yashiringan. Aslida *suruv* ona – Vatanning boyligi, el farovonligining asosi bo'lsa, bo'ri esa shu yurtga, uning boyliklariga ko'z olaytiradigan g'animlar. Ular bu boyliklarga ega bo'lish uchun jon-joni bilan harakat qiladi. Shunday paytda g'animga g'animdek bo'lish Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat tufayli paydo bo'ladi.

"Bug'doyzorlarim" she'rida ham shoir Vatanning ramzi – bug'doyni tilga olarkan, "*bug'doybo'y Vatan*" deya yurtining insonlari halol kun kechirayotganiga ishora qiladi, shu halol mehnati ortidan topilgan rizq xalq hayotini farovon qilishiga ishonadi:

*Bu yurt non islidir, bu yurt – bug'doybo'y,  
Gulbahor, menga ham ko'k choyingdan qo'y.  
Yozilsin dildagi bor xumorlarim,*

*Mening akam, singlim – bug‘doyzorlarim* ([Sayyid S. 2019:46]).

Vatanning poetik obrazi yaratilar ekan, shoir qarashlari tobora kengayib, poetik timsollari xilma-xilligi muntazam oshib borayotganini kuzatamiz. Vatanni onaga, otaga qiyoslash, aka, singil kabi qadrdonligini his etish Vatanga bo‘lgan muhabbat ifodasidir:

*...Meni katta qilgan chang g‘uborlarim,*

*Ey ota makonim, bug‘doyzorlarim* ([Sayyid S. 2019:46]).

Shoir qator she‘rlarida Vatanni bug‘doyzorga, xalqni va o‘zini bug‘doy boshloqlariga qiyos etadi.

Bug‘doy – Vatan timsoli, Vatanning kuch-qudratini ko‘z-ko‘zlovchi buyuk ne‘mat. Tarix qa‘riga nazar solganimiz ham el-u yurt, shu muqaddas Vatan hamisha bug‘doyni e‘zozlab kelganligini kuzatamiz. Shuning uchun uning tuprog‘idan, har bir maysasidan bug‘doy hidi taraladi. Shoir nazdida, buyuk ajdodlarimiz ruhlari hamisha bu Vatanning rizq-u nasibasi butun bo‘lishini tilaydi:

*Ijobat topgaydir dil ayvonida*

*Naqshband bobolar qilgan duoyim.*

*Somon yo‘llarining nur osmonida*

*Sening sehring bordir, axir, bug‘doyim* ([Sayyid S. 2019:160]).

Professor Q.Yo‘ldoshev ta‘kidlaganidek: “Yurt tushunchasi tilidagina bo‘lib qolmay, ko‘ngliga ko‘chib, ruhini to‘liq egallagan ijodkor nima haqda yozsa ham Vatanni tasvirlagan bo‘lib chiqaveradi” ([Yo‘ldoshev Q. 2006:123]). Sirojiddin Sayyid she‘rlarini o‘qib, tahlil qilib, shu narsaga amin bo‘ldikki, shoir qaysi mavzuga qo‘l urmasin, uning mohiyatida, asl mazmunida Vatan obrazi talqini namoyon bo‘ladi. Sirojiddin Sayyid ichki sezgilarining jilvalarini ko‘rsatishga, ko‘ngil manzaralarining tasvirini berishga intilganligi, adabiy an‘analardan oziqlanganligi sababli uning ijodida Vatan poetik obrazi mukammallashdi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish poetik tasvirda yetakchilik qildi. Shoirning kechinmalar va ruhiy holatlar tasviriga alohida e‘tibor berishi uning adabiy izlanishlaridagi o‘ziga xoslikning ifodasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. – Тошкент: Гафур Фулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2015.
2. Ёўлдошев Қ, Ёник сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 123.
3. Саййид С. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018.
4. Саййид С. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достон. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019.
5. Xudoyorova G. Abdulla Oripov she‘riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg‘unligi (Xorij safarlaridagi asarlari misolida). Filol.fan. falsafa dokt...diss. –Toshkent, 2022.